

DEKORATIV KOMPOZITSIYALARINI BAJARISHDA RANG MUNOSABATLARIDAGI O'ZARO UYG'UNLIK

To'ychizoda Gulnoza Ibrohim qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Tasviriy san'at ixtisosligi 1-kurs magistranti

Annotation

Maqolada tasviriy san'at turlarida kompozitsiya masalalari va yechimlari va uning o'ziga hos xususiyatlari hamda rang orqali asardagi muozanat,dinamika,vazin kabi tahliliy o'rghanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В статье даны рекомендации по аналитическому изучению композиционных задач и решений в изобразительном искусстве и ее особенностей, а также баланса, динамики и веса в работе через цвет.

Annotation

The article gives recommendations for the analytical study of compositional problems and solutions in the visual arts and its features, as well as balance, dynamics and weight in work through color.

Tayanch so'z va iboralar.

Mato, uyg'unlik, uslub, san'at, tahlil, ramz, kompozitsiya, rang, vazn.

Ключевые слова и выражение.

Ткань, гармония, стиль, искусство, анализ, символ, состав, цвет, вес.

Key words.

And expressions. Fabric, harmony, style, art, analysis, symbol, composition, color, weight.

KIRISH

Kompozitsiya amalda dastlab qalamtasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrih chiziqlarning qalinligi narsalarning soya, yorug' joylariga shakl berib, chuqurlik, masofani ifodalashga beradi. Rang va tus kompozitsiya tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Manzara - tasviriy san'atning qadimiyligi janrlaridan bo'lib, tarixiy, maishiy asarlarda ham vosita-fon sifatida muhim ahamiyatga ega.

Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamining eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Manzara asarida inson shaxsi, aql-zakovati, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. I.Levitanning "Oltin kuz", "Abadiy sokinlik uzra", I.Shishkinning "O'rmon yiroqliklari", V.Meshkovning "Ural haqida o'ylar" kabilar shunday asarlardandir.

Tasviriy san'at dagi dekorativ manzara insonda tabiatga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy dekorativ asarlarda bevosita manzaraga ham murojaat qiladilar, etyud, eskitilar yozadilar. Bunda manzara kartinada qo'shimcha fan vazifasini o'taydi.

XX asrning 50 yillarida o'zbek manzara janrida O'rol Tansiqboev karvonboshi bo'ldi. Qishloq xo'jalik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi. U "O'zbekistonda bahor", "Paxtani sug'orish" asarini yaratdi. Tongda esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatning uyg'onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositasidir.

Hayotning Ob'ektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishining epik holatda yuzaga kelishi "Ona o'lka" asarida o'z aksini topdi. Dekorativ kompozitsiya usulida yechish rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa holat cho'lni ochishga bag'ishlangan, "Taxyatosh" va "Issiq ko'l" nomli asarlarida namoyon bo'ladi. Manzara kompozitsiyasini dekorativ usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir.

"Qayroqqum GES tongi" (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. Asar 1957 yili Moskva va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal' bilan taqdirlangan. Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san'at muzevida saqlanmoqda. Tepalikda bul'dozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi rejada qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lida hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi manzara asarida qayroqqumda haqiqatni shoirona, dekorativ talqin etish mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tuslardagi kontrast pushti, tilla, ko'k ranglarda go'zal tabiatning bepayon kengligidagi qaynoq hayot o'z aksini topgan. Dengiz sathidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi baliqlar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan.

O'rol Tansiqboev diapozoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo'li, aql-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlarni ham mahorat bilan tasvirlaydi. Uning ko'p asarlari Moskvadagi Tret'yakov galeriyasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylarida saqlanmoqda.

40-50 yillardagi o'zbek manzara san'atining yana bir vakili Nikolay Qoraxondir. Dastlabki ijodida qishloq hayoti, keng dalalar, yo'llar, mehnatkash xalq hayoti asosiy mavzu bo'lsa, keyinchalik yirik inshootlar va manzaralardan iborat bo'ldi.

Uni xalqning farovon hayoti, mehnat jarayoni ko'proq qiziqtirardi. "Zavod trubalari" (1929 y) "Ishga ketyaptilar" (1934 y) shular jumlasidandir.

50-yillarga kelib rassom ijodida tog' mavzusi asosiy o'rinni egallaydi. Ko'proq bahor, kuz, tabiatning ertalabki, kechqurun paytlarini dekorativ ko'k, yashil, sariq, qizil ranglarda jozibali qilib tasvirladi. Tog'ning jo'shqin ohanglarini "Nanayga yo'l" (1954 y), "Amu daryoda" (1957 y), "Elektrostantsiya" (1957 y) asarlarida tasvirlab berdi.

1958 yillarga kelib rassom ijodining yangi qirralari ochila boshladи. Buni "Gullayotgan vodiy" asari misolida ko'rish mumkin. Bahor, tabiat bayram libosida, binafsha rangli tog' fonida gullab turgan oq, pushti, sariq oq ranglardagi daraxtlar, bepayon dalalarga gilam yozgan yashil maysalar, go'zal tabiatga chiroy ochib, insonga qanchadan-qancha shodlik va quvonch baxsh etadi. Asarda rang koloriti yechimi asosiy rol' o'ynaydi. Esayotgan mayin shabada, tizma tog'lar, sariq, tilla rangdagi bug'doyzorlar bunga misol bo'la oladi.

Samarqanddagi "Shohi-Zinda", "Hazrat Xizir", "Ulug'bek madrasasi", "Afrosiyob" yodgorliklarini chiroyli tasvirlagan Rashid Timurov manzarachi rassom sifatida tabiatni yaxshi his etardi. U "Samarqand" (1958 y GMI) asarida ko'rish nuqtasini juda to'g'ri topgan, panorama ko'rinishida tasvirlangan yodgorliklar chuqur falsafiy fikrlashga chorlaydi. Har bir rassom, har bir avlod o'z davrida manzara janrida ham o'zini sinab ko'radi. Lekin hammalari ham manzarani yaxshi his eta olmaydi. Manzarachi rassom bo'la olmaydi. Tabiatni vujudi bilan his etib sevgan malakali rassomgina o'z his-tuyg'ularini manzara tasvirida ifodalab beradi. Ko'plab keksa avlod rassomlari bizga go'zal manzara asarlarini yaratib meros qoldirganlar. Ular yaratgan san'at asarlarining mazmunini, kompozitsiya tuzilishini ularning ish tajribalarini yoshlarga o'rgatib, ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish o'rnlidir.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: shahar (me'morchilik), qishloq (tog') manzara, san'at (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir. Bularning har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi.

Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'liq (me'morchilik) transport vositalari, odamlar, oromgoh bog'lar hamda yer osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog' manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagи jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori ko'prik, metro qurilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni “Erta tong”, “Bahor” kabi mavzudagi tabiatning nozik, sokin go’zalligini, uning uyg’onish holatini aks ettiruvchi, insonga olam-olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko’z oldimizga keltiramiz.

Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko’rish nuqtasi, ko’rish chizig’i, fazoviy masofa, format, perspektiva, ritm, kolorit, yorug’lik, refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir, rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo’lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi, rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo’lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlashda avvalo quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom kabi holatlarning xarakterli xususiyatlarini sinchiklab kuzatish lozim.

Hajmni aniqlab, ufq chizig’i, ko’rish nuqtasini belgilab olish kerak. So’ngra havo va yerning tekislik nisbatlarni belgilab, oldingi keyingi orqa planni va narsalar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyaning bir necha variantlarini sangina, ko’mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rassom asar yaratishga ekan, ranglarni o’z didiga, uslubiga, maqsadiga bo’ysundirgunga qadar izlaydi. Uning asosida albatta, rang tushunchasi, rang nazariyasi va qonuni yotadi.

Mukammal rang nazariyasiga va amaliyotiga ega bo’lgan rassom rang orqali badiiy obraz yaratishga erishadi. Kompozitsiyalarda ham rang katta o’rinni egallaydi. Rassom qanday asar yaratishidan qat’iy nazar, birinchi navbatda rangga e’tibor bersa, izlansa shundagina uning asari muvofaqqiyat keltiradi.

Tasviriy san’atda rangtasvirning asosiy ifoda va tasvir vositasi rang hisoblanadi. Rassom rang orqali mavjud borliqning o’ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Jahon san’ati taraqqiyotida borliq ranglarini aks ettirishning turli uslub va tizimlari shakllangan, biroq hammasining asosida ranglarni bir-biri bilan aralashtirib, yangi rang hosil qilish uslubi yotadi. Yetti xil kamalak ranglarining bir-biriga aralashishi orqali 280 dan ortiq ranglar tuslanishini hosil qilish mumkin. Rang inson ruhiyatiga kuchli ta’sir etuvchi vosita bo’lib, u insonda quvonch va ma’yuslik, tetiklik yoki g’amginlik, hotirjamlik yoki bezovtalik tuyg’ularini uyg’otishi mumkin. Rassom uchun ranglarning ana shu kuchi muhim omil bo’lib, ular asarning g’oyaviy – plastik yechimida muhim rol o’ynaydi.

Tabiatdagi bor ranglar axromatik va xromatik ranglarga bo’linadi. Axromatik ranglarga oqdan to’q qoragacha bo’lgan, xromatik ranglarga qizil, sariq, ko’k va hokazo ranglar kiradi. Xromatik ranglar o’z navbatida issiq (qizil, sariq, zarg’aldoq) va sovuq (ko’k, moviy, binafsha) shuningdek, har ikkalasiga kiruvchi (binafsha, yashl)

ranglarga ajratiladi. Rangtasvirda issiq va sovuq ranglarning o'zaro uyg'unligi asarning rang tizimi-koloritini tashkil qiladi, shuningdek, asar kompozitsiyasini tashkil etuvchi unsur va vosita hisoblanadi. Issiq rang yaqinlik, sovuq rang uzoqlik tuyg'usini berishi asarda masofani ko'rsatishda (ayniqsa manzara janrida) qo'l keladi.

XULOSA

Tasviriy san'at tarixida ranglardan foydalanish jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib borgan. Ibtidoiy jamoa rassomlari o'z asarlarini mavjud tabiiy (yog'och, ko'mir, olov kuyasi) ranglardan foydalanib ishlagan jamiyat rivoji bilan rang pigment va bog'lovchilar bilan ortib borgan. Ranglar texnologiyasi (akvarel, tempera, akustika) ishlab chiqilgan. O'rta asrlar oxirida moybo'yoq texnologiyasi paydo bo'lган, shu davrda ranglar tuslanishi ham ortib, avvalgi lokal, yassi ranglar o'rnini nur-soya yordamida o'zgaruvchi, tuslanuvchi ranglar tizimi egallagan. Buyumlarning to'laqonli hajmli ko'rinishini aks ettirish fazoviy bo'shliqni ranglar orqali o'zlashtirish kuchayib borgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.M.Abdurahmonov. Tasviriy san'at kompozitsiyasi. Toshkent. 1996.
2. L.Egamov. Kompozitsiya asoslari. "San'at jurnali" nashriyoti. T.2005 y.
3. A.Turdaliev. Kitobat san'ati. Namangan, 2004 y.
4. N.Abdullaev. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent-2007 y.
5. O'zbekiston san'ati. (1991-2001 yillar) O'zbekiston Badiiy Akademiyasi san'at shunoslik ilmiy tadqiqot instituti. T-2001 y.
6. "San'at ". O'zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali. 3-son. 2010 y.
7. A.Egamberdiev, S.Saidov, R.Rajabov. Tasviriy va mehmorlik san'ati tarixi. Toshkent. "O'qituvchi". 2007 y.
8. "San'at ". O'zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali. 3-son. 2010 y.
9. A.Zaytsev. nauka otsvete i jivopisg'. 1986.
10. E.V.Shoroxov. Kompozitsiya.- M., 1986.
11. A.Egamberdiev. Janrovaya jivopisg' Uzbekistana, T.-1989.
12. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.,-1991
13. V.Shoroxov. Osnovq kompoztsii. Moskva, «Prosveo'enie». -19